



ANALYSIS OF FARIDDIN ATTOR'S EPISTLE "MANTIQU UT-TAYR" ARTISTIC ICONIC MANUSCRIPTS

Arifboyev Sherzod

Employee of the Museum of Oriental Miniature Art named after
Kamoliddin Behzod

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17911537>

ARTICLE INFO

Received: 05th December 2025

Accepted: 11th December 2025

Online: 12th December 2025

KEYWORDS

Farid ud-Din Attar, Mantiq al-Tayr, manuscript, Sufism, Oriental miniature, Cambridge Library, Bodleian Library, The British Library, MS 7735, scientific analysis.

ABSTRACT

The article explores Farid ud-Din Attar's Mantiq al-Tayr and its manuscript copies preserved in major libraries and museums around the world. It examines the poem's Sufi-philosophical foundations, its historical and cultural significance, and its prominent role within the literary heritage of the East. The study provides a comparative analysis of the manuscripts housed in the collections of the libraries of Cambridge, Oxford, and Manchester universities, SOAS, Eton College, as well as the British Library. Particular emphasis is placed on the British Library's MS 7735 manuscript, with detailed attention to its calligraphy, illumination, and miniature paintings. The article reveals the artistic and aesthetic value of Attar's legacy and the scholarly significance of the manuscript collections.

АНАЛИЗ ПОСЛАНИЯ ФАРИДДИНА АТТОРА «МАНТИК УТ-ТАЙР» ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ЗНАКОВЫЕ РУКОПИСИ

Арифбойев Шерзод

Сотрудник Музея восточной миниатюры имени Камолиддина Бехзода

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17911537>

ARTICLE INFO

Received: 05th December 2025

Accepted: 11th December 2025

Online: 12th December 2025

KEYWORDS

Фаридулдин Аттара, Мантик-ут-тайр, рукопись, суфизм, восточная миниатюра, библиотека Кембриджа, Бодлианская библиотека Оксфорда, Британская библиотека, MS 7735, научный анализ.

ABSTRACT

В статье приводится научный анализ поэмы Фаридулдина Аттара «Мантик-ут-тайр» и её рукописных списков, хранящихся в крупнейших библиотеках и музеях мира. Освещены вопросы суфийско-философского содержания произведения, его историческое значение и место в литературном наследии Востока. В ходе исследования на основе сравнительного анализа изучены рукописи из фондов библиотек Кембриджского, Оксфордского, Манчестерского университетов, SOAS, Итонского колледжа, а также Британской библиотеки. Особое внимание уделено анализу рукописи MS 7735 из



Британской библиотеки, включающему подробное изучение её каллиграфического исполнения, художественного оформления и миниатюр. Статья раскрывает художественно-эстетическую ценность наследия Аттара и научное значение рукописных коллекций.

FARIDDIN ATTORNING “MANTIQ UT-TAYR” DOSTONI BADIY BEZAKLI QO'LYOZMALARI TAHLILI

Arifboyev Sherzod

Kamoliddin Behzod nomidagi

Sharq miniatyura san'ati muzeyi xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17911537>

ARTICLE INFO

Received: 05th December 2025

Accepted: 11th December 2025

Online: 12th December 2025

KEYWORDS

Fariduddin Attor, Mantiq ut-Tayr, qo'lyozma, tasavvuf, Sharq miniatyurasi, Kembrij kutubxonasi, Oksford Bodleian, Britaniya kutubxonasi, MS 7735, ilmiy tahlil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Fariduddin Attorning “Mantiq ut-Tayr” dostoni va uning jahon kutubxonalari hamda muzeylarida saqlanayotgan qo'lyozma nusxalari ilmiy tahlil qilinadi. Asarning tasavvufiy-falsafiy mazmuni, tarixiy ahamiyati va Sharq adabiy merosidagi o'рни yoritilgan. Tadqiqot davomida Kembrij, Oksford, Eton kolleji, SOAS, Manchester va Britaniya kutubxonalari fondlaridagi qo'lyozmalar solishtirma tahlil asosida o'rganildi. Ayniqsa, Britaniya kutubxonasidagi MS 7735 nusxasi xattotlik, miniatyura va badiiy bezak jihatidan batafsil tasvirlangan. Maqola Attor merosining badiiy-estetik qimmatini va qo'lyozmalar kolleksiyalarining ilmiy ahamiyatini ochib beradi.

Jahon adabiyoti va so'z san'atining zabardast namoyandalaridan biri, yirik mutasavvif shoir Fariduddin Attor (asl ism-sharifi — Attor Abu Homid Fariduddin Muhammad ibn Abu Bakr Ibrohim Nishopuriy, 1145–1221) Nishopur atrofidagi Kadkana qishlog'ida tug'ilgan. Uning adabiy boy merosi butun islom olamining ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallagan. Shoir haqidagi ma'lumotlar kam va tarqoq. Tug'ilgan va vafot etgan yillari manbalarda turlicha keltirilgan bo'lsa-da, uning yoshi yuzdan oshgani va mo'g'ul bosqinchilari tomonidan shahid qilinganligi haqida rivoyatlar mavjud.¹

Attor shaxsiyati va uning ijodiy yo'lida tariqat mafkuralari birinchi o'ringa chiqadi. U Mansur Halloj va Boyazid Bistomiy ta'limotidagi g'oyalarni davom ettirgan. Attor falsafasining asosini tavhid — Allohning yagonaligini tan olish ilmi tashkil etadi.

¹ iranicaonline.org/articles/attar-farid-al-din-poet



Attorning boy adabiy merosida o'z davridayoq shuhrat topib, keng jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan asarlari ko'pdir. Ana shunday asarlaridan biri — "Mantiq ut-tayr" (Qushlar tili mantiqi) masnaviy dostonidir. Bu asar fors tilida milodiy 1177-yilda yozilgan bo'lib, 4500 baytdan iborat.² Unda hikmatlarga boy, chuqur falsaviy qarashlar tasavvuf g'oyalari orqali qushlar tilidan bayon qilingan.

Bu asar haqida so'z borganda, Attorning ma'naviy shogirdi, so'z mulking sultoni — buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy hazratlarining bolalik yillaridagi voqea yodga olinadi. Hazrat Navoiy ushbu asarga shunchalik mehr qo'yib, uni yod olganlari va butun umr mobaynida yo'llarini yorutganini hammamiz bilamiz. Umrlari oxiriga kelib, Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga nazira sifatida "Lison ut-tayr" dostonini yaratadilar.

Navoiy "Lison ut-tayr" asarida Attor va uning dostoni haqida shunday yozadi:

«Qushlar tiliga yo'l topganlardan biri Sulaymon payg'ambar edi. Keyin vaziri Osaf undan ta'lim olib, qushlar tilini o'rgandi, ammo bu tildan u hech kimni xabardor etmadi... Boshqa odamlar (shoiralar ham) qush tilini bilmaganlari uchun, uning fahmiga yetmas edilar. Tez aylanuvchi falak shitob bilan oradan necha ming yilni o'tkazib yubordi. Shundan so'ng chiqqan sayr etuvchi, chechan nutq aytuvchi va o'tkir aqlli, omadi yurishgan bir qush (Fariduddin Attorni aytmoqchi) maydonga chiqdi. Uni qush dema, balki Fano Qofining anqosi de, barcha qushlar tilining donosi de! U — bu yo'lning boshlovchisi va avliyolar qiblati bo'lib, ko'ngli haq yo'lni ko'rsatish uchun jilolangan edi. U, haqiqat sirlarini kashf etishda farid, yagona va tengi yo'qdir, nutqidan haqiqat ahli bahramand bo'lur...»

Dar haqiqat, Attor yaratgan mazkur doston Sharq adabiy-estetik tafakkurining yuksak namunasi sifatida keyingi asrlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, tasavvuf falsafasining eng mukammal badiiy talqinlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Dostonning asosiy qismi "hikoya ichida hikoya" uslubida yozilgan bo'lib, u qushlarning Simurg' tomon qilgan sayohatini tasvirlaydi. Asarda qirqdan ortiq maqolat, shuningdek ayrim epizodlarga ilova tarzida keltirilgan, chuqur ma'noga ega yuzga yaqin kichik hikoya, masal va latifalar jamlangan.

"Mantiq ut-tayr"ning bosh g'oyasi — Allohni topishni istagan inson, avvalo, o'zini tanishi lozimligi haqidagi tasavvufiy haqiqatni anglatishga qaratilgan bo'lib, «man 'arifa nafsahu faqad 'arifa rabbahu» ("Kim o'zligini bilsa, Alloh taoloni ham biladi") hikmatining badiiy talqinidir. Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan qushlardan faqat o'ttiz nafari omon qoladi va safar oxirida ular izlab kelgan "Simurg'"(30 qush) aslida o'zlari ekanini anglaydilar³. Mazkur doston Attorning ma'naviy olami, tasavvufiy qarashlari va ruhiy tajribalarini mujassam etgan, islom olamida o'ziga xos o'rin egallagan ulkan badiiy meroslardan biridir.

Asarning chuqur falsaviy g'oyalari hanuzgacha tadqiq etilib, izlanish olib borayotgan olim va mutaxassislarni ilhomlantirib kelmoqda. Bugungi kungacha ushbu dostonning turli davrlarda ko'chirilgan qo'lyozma nusxalari jahonning turfa muzey va kutubxona

² [uz.wikipedia.org/wiki/Mantiq_ut-tayr_\(asar\)](http://uz.wikipedia.org/wiki/Mantiq_ut-tayr_(asar))

³ Mantiq ut tayr nasriy bayon 4 bet



kolleksiyalarida saqlanmoqda. Mazkur maqolada ana shunday qo'lyozmalarning ayrimlari haqida so'z yuritiladi.

“Mantiq ut-Tayr” asarining qo'lyozma nusxalari eng ko'p saqlanayotgan manzillardan biri — Kembrij universiteti kutubxonasidir. Kembrij kutubxonasi qadimiy qo'lyozmalar xazinasi sifatida Sharq adabiy merosining ko'plab nodir namunalari bilan mashhur. Bu yerda e'tiborga molik quyidagi qo'lyozmalar mavjud: Dd. 11.17, Or 190 (16-asr), Or 195 (15-asr), Or 264 (15-asr), Or 685 (19-asr), Or 1698 (15-asr). Ulardan ayrimlari nafis tasviriy bezaklar va miniatyuralar bilan boyitilgan.

Asarning yana bir muhim qo'lyozma nusxasi Eton kolleji kutubxonasida Eton Pote 385 raqami ostida saqlanadi. Bu kutubxona Angliyadagi eng qadimiy akademik kitob xazinalaridan biri bo'lib, tarixiy qo'lyozmalarni jamlagani bilan alohida ahamiyatga ega.

Keyingi muhim manzil — SOAS kutubxonasi bo'lib, u Sharq va Afrika mamlakatlarining tarixiy va badiiy merosini saqlovchi noyob maskanlardan biridir. Bu yerda Ms. 47586 raqami ostidagi jildda ikkita asar mavjud bo'lib, ulardan ikkinchisi Atorning “Mantiq ut-Tayr” dostonining qo'lyozma nusxasidir.

Sharq qo'lyozmalarining yirik to'plamiga ega bo'lgan yana bir nufuzli markaz — Oksford universitetining Bodleian kutubxonasi. Ushbu kutubxona qadimiy Sharq va Yevropa qo'lyozmalarining eng boy kolleksiyalaridan biri bo'lib, Attor merosiga oid ko'plab asarlarni o'zida jamlagan. Ulardan eng e'tiborilari: MS. Elliott 246 (15-asr), MS. Ouseley 63, MS. Ouseley 195 (16-asr), Or Tabriz, Eron; MS. Ouseley 105 (16-asr), MS. Pers. d. 71 (15-asr), MS. S. Digby Or. 81 (15-asr), MS. Selden Superius 25.

Attor asarlarini saqlovchi yana bir muhim maskan — Manchester universiteti qoshidagi Jon Rylands tadqiqot instituti va kutubxonasidir. Bu yerda Sharq qo'lyozmalarining boy to'plami mavjud. Ular orasida Fors MS 540 (16-asr) va Fors MS 632 (Hindiston yarimoroli) kabi qo'lyozmalar “Mantiq ut-Tayr”ning qadimiy nusxalari sifatida alohida ahamiyatga ega.

Mazkur mavzuga doir qo'lyozmalarni jamlagan yana bir yirik ilmiy markaz — Britaniya kutubxonasi Sharq qo'lyozmalari bo'limidir. Bu bo'lim Fors, Arab va Hind qo'lyozmalarining turli davrlarga oid nodir namunalari bilan boy. Tadqiqot jarayonida quyidagi nusxalar e'tiborga sazovor bo'ldi: MS 7735 (16-asr), MS 27261 (15-asr), Dehli fors 1152 (16–17-asr; Hindiston), Or 5010 (19-asr), Or 5415 (16–17-asr), Or 11325 (15-asr), Or 12003 (15-asr), Or 14316 (15-asr; Eron), Or 14771 (19-asr; Hindiston).

MS 7735 raqamida saqlanayotgan ushbu qo'lyozma Britaniya kutubxonasining “Qo'shimcha qo'lyozmalar” to'plamiga mansub bo'lib, Atorning “Mantiq ut-Tayr” dostonining qadimiy va muhim nusxalaridan biridir. Birinchi varaqqa tushirilgan yozuvga ko'ra, qo'lyozma hijriy 1117 yilda ko'chirilgan. Asar fors adabiyoti va tasavvuf tafakkurining yuksak namunasi bo'lib, matn fors tilida, nafis nasta'liq xatida bitilgan. Qo'lyozma badiiy jihatdan yuksak darajada ishlangan: 208 varaqlar, bitta unvon sahifasi, to'qqiz miniatyura va oltin bilan ishlangan xoshiyalar uning san'at tarixidagi o'rnini belgilaydi. O'lchamlari 24,1 × 15,9 sm. Ushbu qo'lyozma Britaniya kutubxonasiga kelib tushishidan avval Shirvonlik marhum Beglerbegi Olloh Verdixon mulkida bo'lgan (Rieu, Britaniya muzeyidagi fors qo'lyozmalari katalogi, 1876–83, 577–578-betlar).


Qo'lyozmadan o'rin olgan to'qqiz miniatyura sahnalari quyidagilar:



f. 28v: Darvesh malikasi
huzurida tiz cho'kmoqda;



f. 30v: Hud-hud
va tovus;




f. 49r: Shayx San'on yunon
qiziga boqmoqda;




f. 68r: Sulton Mahmud
bolaga baliq tutishda
yordam bermoqda;




f. 75v: Jabroil
ibodatxonadagi odamga
murojaat qilmoqda;



f. 84r: Ikki tulki hikoyasi;
ov sahnasi;



f. 91r: Donishmand
podshohga Izroil kiradigan
yoriq haqida xabar
bermoqda;



f. 151r: Sulton Mahmud va
Ayo;



f. 181v: Darvesh sabab
shahzodaning vafoti;



MS 7735 qo'lyozmasi matn, xattotlik, miniatyura san'ati va muqova bezaklari jihatidan "Mantiq ut-Tayr"ning eng muhim va noyob nusxalaridan biri hisoblanadi. Uning badiiy va tarixiy qimmatini beqiyosdir.

Fariduddin Attorning "Mantiq ut-Tayr" dostoni Sharq ma'naviy tafakkurining eng yuksak durdonalaridan biridir. Asarning badiiy falsafasi, ramziy qatlamlari va tasavvufiy mazmuni uni nafaqat adabiyotshunoslik, balki falsafa, san'atshunoslik hamda qo'lyozmalar tadqiqi uchun ham bebaho manbaga aylantirgan. Dostonning turli davrlarda ko'chirilgan qo'lyozma nusxalari dunyoning eng nufuzli muzey va kutubxonalarida saqlanayotgani uning global ilmiy va madaniy ahamiyatidan dalolat beradi. Tahlil qilingan MS 7735 kabi yuksak badiiy namunalarning o'rganilishi "Mantiq ut-Tayr"ning qo'lyozma an'anasi, tasviriy bezaklari va tarixiy o'rnini yanada chuqur anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot Attor merosining dunyo miqyosidagi tarqalishi va qadrlanishini yoritishga xizmat qiladi.

References:

1. Attar, Fariduddin. Mantiq al-Tayr. Critical editions. Tehran: Asātīr Publishing, 2007.
2. Attar, Fariduddin. The Conference of the Birds. Translated by Afkham Darbandi and Dick Davis. London: Penguin Classics, 2011.
3. Ritter, Hellmut. Das Meer der Seele: Mensch, Welt und Gott in den Geschichten Faridoddin 'Attars. Leiden: Brill, 1955.
4. Qo'lyozmalar kataloglari va muzey nashrlari
5. Rieu, Charles. Catalogue of the Persian Manuscripts in the British Museum. Vol. 1–3. London: British Museum, 1879–1883.
6. Storey, C. A. Persian Literature: A Bio-Bibliographical Survey. Vol. II/2. London: Royal Asiatic Society, 1953.
7. Titley, Norah M. Miniatures from Persian Manuscripts: A Catalogue and Subject Index of Paintings in the British Library and the British Museum. London: British Library, 1977.
8. Robinson, B. W. Persian Paintings in the John Rylands Library. Manchester: John Rylands University Library, 1980.
9. Sims, Eleanor. The Illustrated Manuscripts of Attar's Works in the West. London: SOAS Press, 1998.
10. Kembrij, Oksford, SOAS, Eton va boshqa kutubxonalar kataloglari.
11. Cambridge University Library. Catalogue of Persian Manuscripts. Cambridge, 1968.
12. Arberry, A. J. The Chester Beatty Library: A Catalogue of the Persian Manuscripts and Miniatures. Dublin, 1959.
13. Ouseley, William. Catalogue of the Persian, Turkish, Hindu and Pushtu Manuscripts in the Bodleian Library. Oxford: Clarendon Press, 1889.
14. Soane, E. B. Catalogue of the Persian Manuscripts in the Bodleian Library. Oxford: Bodleian Library, 1910.
15. Ettinghausen, Richard. Painting in the Near East. Washington D.C.: Smithsonian Institution, 1977.



16. Schimmel, Annemarie. *Mystical Dimensions of Islam*. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
17. Schimmel, Annemarie. *Deciphering the Signs of God*. Albany: SUNY Press, 1994.
18. Lewisohn, Leonard. "The Sacred Music of Islam: The Mystic Songs of Farid al-Din Attar." *Journal of Persianate Studies* 3 (2010).
19. British Library, Digitised Manuscripts — <https://www.bl.uk/manuscripts>.
20. Cambridge Digital Library, Persian Manuscripts Collection — <https://cudl.lib.cam.ac.uk>
21. SOAS Archive Catalogue — <https://archives.soas.ac.uk/>
22. Bodleian Libraries, Digital Bodleian — <https://digital.bodleian.ox.ac.uk>